

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar va ularni mevasidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali polietilen flakonda yoki blisterda qodoqlangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Tarkibi: Sallagul (Herba Paeoniae anomalae), Bargisurx (Chamerion angustifolium L.), Ansol (Populus tremula L), Qovoq (Cucurbita pepo L), Kashtan (Aesculus hippocastanum L), Qichitqi o‘t (Urtica dioica L.), Qariqiz (Arctium lappa L).

PREPARATNING TA‘SIRI

Erkaklik quvvati (libido)ni, baquvvatlik va chidamlilikni oshiradi. Erkaklarda siydik yo‘li a‘zolarining umumiy vazifalarini mo‘tadillashtiradi. E vitamini, ruh va mis manbai hisoblanadi. Prostata bezi funksiyasini yaxshilash va saqlab qolishga yordam beradi. Erkaklarda jinsiy ta‘sirchanlikni rag‘barlantiradi va reproduktiv salohiyatini oshiradi.

QO‘LLANILISHI

- O‘tkir prostatit va prostata giperplazini oldini olishda;
- Sistitda;
- Surunkali prostatitning yomonlashib ketishining oldini olishda;
- Prostatitga duchor bo‘lganlarda uzoq muddatli davolash kurslarida;
- Urogenital tizimning funksional bo‘zilishida;
- Ereksiyaning bo‘zilishida;
- Prostata bezlarining tarkibiy tuzilishi va funksional ishlashini, va uning hujayralarida metabolik jarayonlarini yaxshilashda.

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

Katta yoshlilarga	1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal ovqatlanishdan 5-10 daqiqa oldin.
-------------------	---

Surunkali kasalliklarda davolanish kursi, odatda 30 kunni tashkil etadi.

Zarurat tug‘ilganda qayta davolash kursi belgilanadi

NOJO‘YA TA‘SIRI

Odatda nojo‘ya ta‘siri yuzaga kelmaydi, ko‘pgina holatlarda preparatning yaxshi ta‘siri kuzatilgan.

Preparatning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yakka tarzda uchraydigan yuqori ta‘sirchanlik holatlarida allergik reaksiyalar, oshqozon-ichak traktida dispeptik buzilishlar kuzatilishi mumkin.

Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo‘llashdan to‘xtash kerak.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri aniqlanmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2 S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz